

## MOODLE PLATFORMASIDA MUSTAQIL TA'LIM

**Buronova Dilnoza Bahodirovna**

Ilmiy maslahatchi

**Jo'rayeva Nasiba G'anisher qizi**

SamDChTI magistratura talabasi

[nasibajorayeva@mail.com](mailto:nasibajorayeva@mail.com)

### *ANNOTATSIYA*

*Bugungi kunda yoshlarga zamonaviy ta'lim berish oliy ta'lim muassasalarining asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Dunyoning nufuzli oliygohlaridagi ilg'or ilmiy va metodik qo'llanmalar hozirgi kunda O'zbek oliygohlarida ham qo'llanilmoqda. Shulardan biri MOODLE platformasining yurtimizdagi oliygohlarda qo'llanilishi bo'ldi. Shu kunlarda MOODLE platformasining oliy ta'lim muassasalaridagi ahamiyati ancha katta. Ayniqsa, mustaqil ta'lim yo'nalishida talabalarning darslardan tashqari ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Maqolada MOODLE platformasining qulayliklari va MOODLE platformasida mustaqil ta'limni tashkil etish haqida tushunchalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** zamonaviylik, MOODLE platformasi, mustaqil ta'lim, ta'limda texnologiya, zamonaviy ta'lim, oliy ta'lim muassasalari.*

Zamonaviy ta'limda kredit modul tizimi katta qulayliklarga egaligi ochiq, ravshan ma'lum bo'lmoqda. Hozirgi kunda kredit modul tizimi yurtimizdagi barcha oliy o'quv muassasalarida qo'llanilmoqda. Ushbu tizim yurtimizda yangi bo'lishiga qaramasdan, o'zining afzalliklari bilan barchaga birdek ma'qul kelishga ulgurdi. Ushbu ta'lim tizimining afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Moslashuvchanlik. Kredit modul tizimi har qanday ta'lim tizimiga mos keladi. Shuningdek, talabalar o'z'lariga qulay bo'lgan vaqtda mustaqil ta'lim mavzularini o'qib tushinishlari va buning ustida ilmiy faoliyat olib borishlari mumkin. Kredit modul tizimi talabalarga o'zlari istagan fanni o'rganishlariga ham imkoniyat yaratib beradi.

2. O'tkazuvchanlik. Kredit modul tizimidagi baholar va mavzular o'tkazuvchan, ushbu ma'lumotlarni yurtimizdagi istalgan o'quv muassasasiga yoki xalqaro oliy o'quv yurtlariga ham jo'natish mumkin. Bu talabalarga chet el o'quv yurtlariga bemaol kredit ballarini yo'qotmasdan borib o'qishlariga imkoniyat yaratib beradi.

3. Keng ilmiy imkoniyatlar. Kredit modul tizimi talabalarga istalgan mavzuda darsdan tashqari ma'lumotlar olishga va shug'ullanishga imkoniyat yaratadi. MOODLE platformasining onlayn kutubxona qismida talabalar istalgan badiiy va ilmiy adabiyotlarini topishlari va tekin yuklab olishlari mumkin bo'ladi.

Kredit modul tizimi yurtimiz oliygohlarida va xalqaro oliy o'quv muassasalarida farq qiladi. Yurtimiz oliy ta'limida qo'llanilayotgan bu sistema avvalambor, ma'lum o'zgartirish va muqobillashtirishdan so'ng amalga qo'yildi. Tarixga diqqat etadigan bo'lsak, kredit modul tizimi AQSHda talabalarning haftalik yuklamalarini aniqlab, jadvalga solish maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu tizim kerakli o'zgarishlardan so'ng, 1870-1880 – yillardan boshlab keng qo'llanila boshlangan.

Yurtimizda kredit modul tizimi 2021- yildan boshlab keng qo'llanila boshladi. 2020 – yilning 31 – dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq tizimni joriy etish tartibi to'g'risida" NIZOM tasdiqlanib, kredit modul tizimiga oid asosiy tushunchalar berib o'tilgan.

Shu o'rinda, ushbu tizimdagi ma'lum so'zlarning mohiyatiga e'tibor qaratsak:

Modul: bir necha bir biriga uzviy bog'liq bo'lgan fanlarning jamlanmasidir. Modul tizimida talabalar ushbu fanlardan audio, video hamda yozma materiallarni o'qiydilar, o'rganadilar, ushbu manbalardan kelib chiqqan holda o'rgangan bilimlarini ma'lum topshiriqlar va vazifalar orqali mustahkamlaydilar.

Hozirgi kunda yurtimiz oliy ta'lim tizimida kredit modul tizimidan foydalanishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Ushbu qiyinchiliklardan biri, talabalar uchun mustaqil ta'limni tashkil etishdir. Odatda, mustaqil ta'lim mavzulari o'qilayotgan fanning mavzulari bilan chambarchas bog'liq holda bo'ladi. Ammo, Xorijiy til va adabiyot fakulteti talabalari uchun mustaqil ta'limni tashkil etishda manbalarning ko'pligi va ularning chalkashligi professor- o'qituvchilar uchun o'z talabalariga mustaqil ta'limni qiziqarli va foydali holda tashkil etishga oz bo'lsa-da qiyinchilik tug'diradi. Tan olish kerakki, ushbu sohada o'quv ma'lumotlari eskirgan, manbalarning ko'pchiligi 2000 – yillardan oldin yozilgan asarlardir.

Yuqoridagi muammoni hal qilishning zamonaviy usullaridan foydalanish har bir o'z kasbi uchun qayg'uruvchi pedagog uchun manfaatli bo'lur edi. Quyida kamina ham o'quv materiallarini yangilash va mustaqil ta'limni tashkil etish borasida o'z fikrlarimni taqdim etmoqchiman:

1. Mustaqil ta'limning zamonaviy shakllaridan biri – dars vaqtida prezentatsiya va mustaqil ishlarni tekshirmaslikdir. AQShning George Washington universiteti tajribasidan oladigan bo'lsak, talabalarining dars vaqti faqat nazariy, darsdan tashqari mustaqil ta'limni amaliy mashg'ulot shaklida o'rganish faqatgina vaqtni tejab qolmasdan, o'quv jarayonini yanada sifatliroq etishga ko'maklashadi. Masalan, mavzu “eating habits” bo'lganda, offline mashg'ulot davomida professor – o'qituvchi to'g'ri ovqatlanish qoidalari va aynan qaysi taomlar foydali, qaysilari zararli ekanligi haqida ma'lumotlar berib o'tadi. Talabalar og'zaki topshiriqlar yoki eshitish ko'nikmasini oshiruvchi mashg'ulotlarni dars davomida qo'llashlari mumkin bo'ladi. MOODLE platformasida esa, mustaqil ta'limni “digital story telling” shaklida amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

2. Yurtimizda tahsil olayotgan talabalarining shunday bir odatlari borki, bundan batamom ko'z yummoqlikning aslo iloji yo'q: talabalar “cheating” ya'ni, ko'chirmakashlik kabi nomaqbul ishlarga qo'l urishlari ham mumkin. Bunday

holatlar tez – tez bo‘lib turmasa-da, butunlay bo‘lmaydi deya olmaymiz. Talabalar doim ham o‘zlari tushungan narsalarni yozmaydilar. Buning oldini olish vositasi sifatida, talabalarning har bir mustaqil ta‘lim topshiriqlarini ko‘chirmakashlikka yo‘l qo‘ymaydigan topshiriqlar shaklida berib boorish tavsiya etiladi. Masalan, video tayyorlash, maxsus savollar ishlab chiqish, presentatsiya tayyorlash, yoki qo‘lyozmalarni taqdim etish kabi.

3. Mutaxassisliklari ingliz tiliga bog‘liq bo‘lgan bakalavriat yo‘nalishlarida o‘qish ko‘nikmasini mustahkamlashga qaratilgan fanlar bor ekanligi hech kimga sir emas. Ushbu fanlar uchun mustaqil ta‘lim mavzularini tashkil etish albatta muammolarga sabab bo‘lmaydi. Adabiyot fanlarida ham xuddi shunday holat desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Yuqoridagi ikkala fanlar uchun ham mustaqil ta‘limni tashkil etishda ma‘lum bir zamonaviy badiiy asar o‘qish, va uning tahlili qo‘llanilsa, bu sohalardagi katta o‘zgarishlardan biri bo‘lishi ravshan. Masalan, adabiyot fanida mustaqil ta‘lim uchun o‘quv yili boshida zamonaviy adabiyotdan bir asar olinadi. Mavzularning ketma- ketligiga qarab, ushbu asar ham o‘qilib, ham tahlil etiladi. Deylik, badiiy asardagi makon va zamon tushunchalari haqidagi mavzuga oid mustaqil ta‘lim topshirig‘i ushbu asardagi yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan zamon va makon ma‘nosini anglatuvchi so‘zlar, badiiy bo‘yoqlar, muloqotlar o‘rganilishi mumkin.

**Xulosa :** Xulosa o‘rnida shuni eslatib o‘tish joizki, shiddat bilan rivojlanayotgan bu dunyoda ilmiy sohada ham zamonaviy texnologiya va adabiyotlardan foydalanish istiqbolli o‘zgarishlarga va yutuqlarga olib kelishi shubhasizdir. Bu borada MOODLE tizimida mustaqil ta‘limni oliy o‘quv yurtlarida yangicha qarash bilan o‘zgartirish katta o‘zgarishlarga yetaklaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sherzod Mustafiqulov, Mansur Sultonov. “Kredit modul tizimiga o‘tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik”. Xalq so‘zi(05 avgust 2020)

2. Vazirlar Mahkamasi 2020 yil 31 – dekabrda “Oliy talim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” 824 – sonli qarori

3. Alisherovna M.N. On the Comparative Study of Phraseology at the Present Stage //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES.